

“LATOFATNOMA” DOSTONI TUZILISHI VA QO’LYOZMA NUSXALARI

*Asadova Dilafruz Shirinboy qizi Sharof Rashidov
nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy
Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
filologiya va tillarni o’qitish: o’zbek tili yo’nalishi
IV bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: dots. Muminova Dilorom*

Kalit soʻzlar: "Latofatnoma", qoʻlyozma nusxasi, Qobul nusxasi, Istanbul Millat kutubxona nusxasi, Kanada va London nusxasi, Ergash Fozilov.

Annotatsiya: ushbu maqolada "Latofatnoma" dostonining tuzilishi va qoʻlyozma nusxalari haqidagi mavzu yoritilgan. Dostoning oʻrganilishi va hajmiga bogʻliq maʼlumotlar va ularni topish va oʻrganishda jonbozlik koʻrsatgan tadqiqotchilar ham zikr qilingan. Ayniqsa asarning lotin alifbosidagi varianti va uning tarkibiy qismini bizgacha yetib kelishida Ergash Fozilovning xizmati kattadir.

Doston yuksak badiiy qiymatga ega. U oʻzgacha xususiyat va tarovatga ega. Ushbu doston qoʻlyozma nusxalarini Muborak maktublar asarida 4 deb keltirilgan. Latofatnoma dostonining matniy tarkibi boshlanmasdan asar muallifi va ushbu asar haqida qisqacha maʼlumot berib oʻtilgan. Unga koʻra asar masnaviy formasida (aa, bb) yozilgan va qofiyalangan. Asarda ishlatilgan badiiy tasvirlash vositalari, usullari esa anʼanaviy formaga ega. Shoir oʻzining barcha imkoniyati va mahoratini bu asarda ishga solgan. Bizgacha Latofatnomaʼning 4 nusxasi yetib kelgan. Uning 2 tasi Kobul kutubxonasining muzeyida, bir nusxasi Istanbulda va yana biri esa Britaniya muzeyida saqlanadi. Qoʻlyozma hijriy 893 (milodiy 1488) yilda koʻchirilgan boʻlib, 313 baytdan iborat. Ammo keyingi izlanishlar natijasida dostonning 5 ta qoʻlyozma nusxasi borligini Akromjon Dehqonov tomonidan aytib oʻtilgan. Ular quyidagilar:

1. Qobul nusxasi 893/1488-yilda uygʻur yozuvida koʻchirilgan. Qobul muzeyining kutubxonasida saqlangan. NATO qoʻshinlari Qobulni bombardimon qilgan vaqtda Qobul Milliy muzeyidagi boshqa qoʻlyozmalar bilan birga yonib ketgan. 313 baytdan iborat.

2. Istanbul Millat kutubxonasi nusxasi. Istanbul Millat kutubxonasida Latofatnomaʼning ikkita qoʻlyozmasi mavjud. Ikkalasi ham arab yozuvida, nastaʼliq xatida yozilgan. Birinchi qoʻlyozmada doston matni Qurʼonga yozilgan sharhning hoshiyasiga yozilgan. Doston matni 91-98-varaqlarda joylashgan. Bu qoʻlyozmada doston matni 296 baytdan iborat. Koʻchirilgan yili koʻrsatilmagan.

3. Istanbul Millat kutubxonasiidagi ikkinchi qo'lyozma. Bu qo'lyozma ham birinchi qo'lyozmadan ko'chirilgan.

4. London nusxasi. Bu qo'lyozmada Latofatnoma dostoni o'zbek adabiyotining boshqa namunalari Muhabbatnoma, Gul va Navro'z, Dahnoma, Lutfiy Devon, Maxzan ul-asror, Yaqiniy Munozara'si kabi asarlar bilan bir muqovada jamlangan. Latofatnoma qo'lyozmaning 142-157-variantlarida joylashgan. Qo'lyozma 914/1509-yilda ko'chirilgan. Doston matni qo'lyozmada 323 baytdan iborat. Arab yozuvida, nasta'liq xatida yozilgan.

5. Kanada nusxasi. Bu qo'lyozma Kanada muzeyining professor Elizar Birnbaum fondi kolleksiyasida saqlanadi. Latofatnoma qo'lyozmaning 14a-24b-betlarida joylashgan. Arab yozuvida, nasta'liq xatida yozilgan. Qo'lyozmada doston matni 313 baytni tashkil qilgan. Shuningdek, bu asarning Britaniyadagi fotonusxasidan ayrim parchalar O'zbek adabiyoti 4 tomligining 1-kitobida ham nashr etilgan. Latofatnoma asarining Kobulda saqlanayotgan uyg'ur yozuvidagi tekst fotonusxasi asosida hamda Istanbul va Londondagi tekstlarning fotonusxalaridan foydalanilgan holda uning transkripsiyadagi teksti 1980 yilda Toshkentda turkolog olim E. Fozilov tomonidan tayyorlanib, nashr etilgan.

Latofatnoma turkiy tilda yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan asar bo'lib, ko'plab dunyo olimlarining e'tiborini tortgan. To'rxon Gandjai, Oisha Gul Sertqoya, Elizar Birnbaum, E.N.Najip, Usmon Sertqoya, E.Shodiyev, V.Rahmonov, E.Fozilov kabi chet el va o'zbek olimlari Latofatnoma bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar ichida atoqli o'zbek olimi, akademik Ergash Fozilovning ishlari alohida o'rin egallaydi. E.Fozilov dastlab 1976-yilda Latofatnoma asari bo'yicha yirik monografik tadqiqotni amalga oshirdi. U doston matnini ilmiy transkripsiyada nashrga tayyorlab, unga batafsil muqaddima yozdi, doston matnini baytma-bayt nasriy bayonini rus tilida e'lon qildi, unga glossariy va grammatik ko'rsatkichlar tuzib, 1976-yilda nashr ettirdi. Ushbu nashrda doston matni 313 baytdan iborat. Oradan 32 yil o'tgach, 2009-yilda Ergash Fozilov yana doston ustidagi yangi tadqiqotlarini e'lon qildi. Bu tadqiqotida olim Latofatnoma dostoni Qobul nusxasining transkripsiyasini, doston bo'yicha tadqiqot-muqaddima maqolani, asarning baytma-bayt nasriy bayonini, glossariy va grammatik ko'rsatkichlarni va doston qo'lyozmalarining beshala nusxasining ham faksimil nashrini hamda asarning qiyosiy ilmiy-tanqidiy matnini e'lon qildi. Ilmiy-tanqidiy matnda doston hajmi 341 baytni tashkil etgan. Akademik Ergash Fozilov Latofatnoma dostoni qo'lyozmalarining faksimilini nashr etish bilan ushbu noyob asar matni ustida olib boriladigan yangi tadqiqotlar uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ergash Fozilov dostonni tarkibiy qismlarga ajratgan va uni baytlarini raqamlab chiqadi. E.Fozilov tomonidan "Latofatnoma" dostoni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratilgan:

1. Allohga hamd;

2. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafoga na't;
3. Dostonning yozilish sababi;
4. Mahmud tarxon madhi;
5. Noma avval;
6. Ikkinchi noma;
7. Uchinchi noma;
8. To'rtinchi noma;
9. Beshinchi noma;
10. Oltinchi noma;
11. Yettinchi noma;
12. Sakkizinchi noma;
13. To'qqizinchi noma;
14. O'ninchi noma;
15. Xotimai noma;

Xulosa qilib aytganda, yuqorida biz asarning qo'lyozma nusxalari va tuzilishiga alohida e'tibor berdik. Har bir nusxaning qachon va kim tomonidan topilganligi, hajmi va hayotiyliigi keltirib o'tdik. "Latofatnoma" dostoni o'zining ixcham, ammo mazmunan boy tuzilishi bilan mumtoz adabiyotimizda alohida o'rin egallaydi. Asar an'anaviy tarzda hamd, na't, muqaddima va asosiy ishqiy-badiiy qismlardan tashkil topib, unda ma'shuqa latofati, husn-jamoli va oshiq kechinmalari, iztiroblari yuksak badiiylik bilan tasvirlangan. Tuzilish jihatidan izchil kompozitsiya, baytlar orasidagi mantiqiy bog'lanish va badiiy vositalarning uyg'unligi asarning mukammalligini ta'minlaydi. Qo'lyozma nusxalarining mavjudligi esa "Latofatnoma"ning o'z davrida keng tarqalganini, o'quvchilar va xattotlar orasida qadrlanganini ko'rsatadi. Turli nusxalarda uchraydigan ayrim farqlar asarning tarixiy rivoji va matnshunoslik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning ilmiy o'rganilishiga keng imkon yaratadi. Umuman olganda, "Latofatnoma" nafaqat ishqiy mavzuni yorituvchi badiiy asar, balki o'zining kompozitsion puxtaligi, til va uslub nafisligi hamda qo'lyozma an'anasi bilan mumtoz adabiyotimizning qimmatli yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akromjon Dehqonov. Xo'jandiy "Latofatnoma"si. Toshkent: O'zbekiston: til va madaniyat, 2024.
2. Узбек мумтоз адабиёти намуналари 11 жилд. Тошкент:Фан, 2007.